

**ҚМҚ 3.03.01-98 “Юк кўтарувчи ва тўсувчи конструкциялар”  
шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларига киритилаётган қўшимчалар**

1. 1.1-бандда:

қуйидаги мазмундаги иккинчи хатбоши билан тўлдирилсин:

“автоклавли силикатли газабетон блоклардан фойдаланган ҳолда конструкцияларни кўтаришда қурилиш ишларини олиб бориш;”;

иккинчи – еттинчи хатбошилар тегишли равишда учинчи – саккизинчи хатбошилар деб ҳисоблансин.

2. 2-боб қуйидаги мазмундаги параграф билан тўлдирилсин:

**“Автоклавли силикатли газабетон**

2.7<sup>1</sup>. Конструкцияларни таёрлаш учун ишлатиладиган конструктив ва иссиқлик изоляция хусусиятли автоклавли ғовак бетон блоклар ГОСТ 31359 ҳамда ШНҚ 3.03.09 талабларига мувофиқ бўлиши керак.

2.7<sup>2</sup>. Автоклавли ғовак бетоннинг зичлиги ГОСТ 27005 га мувофиқ аниқланадиган ва назорат қилинадиган ўртача зичлик бўйича маркаси билан тавсифланади.

2.7<sup>3</sup>. Ўртача зичлик бўйича блокларнинг маркаси Д 600 дан юқори бўлмаслиги керак ва ГОСТ 31360 талабларига мувофиқ белгиланади.

2.7<sup>4</sup>. Автоклавли ғовак бетоннинг мустаҳкамлиги ГОСТ 18105 га мувофиқ аниқланган сиқилишга бўлган мустаҳкамлик бўйича синфлари (В1,5; В2; В2,5; В3,5; В5, В7,5) билан тавсифланади.

2.7<sup>5</sup>. Аниқ ўзига хос хусусиятларга эга маълум бир ишлаб чиқарувчи томонидан ишлаб чиқариладиган автоклавли ғовакли бетон маҳсулотларини эгилишга ишлайдиган конструкцияларга ҳисоблашда, бошланғич эластиклик модулини тадқиқотлар орқали аниқлаш тавсия этилади.

2.7<sup>6</sup>. Ғовакли бетонларни совуққа бардошлилиги маркасини кетма-кет музлатиш ва эритиш орқали аниқлаш ГОСТ 31359 га асосан амалга оширилади.

Ғовакли бетоннинг совуққа бардошлилиги у қўланилган конструкциянинг эксплуатация шароитига ва лойиҳа қилинаётган ҳудуднинг ташқи ҳаво ҳароратига боғлиқ ҳолда тегишли ҚМҚлар ҳамда ташқи деворларда фойдаланиш учун мўлжалланганда F25 дан ҳамда бошқа мақсадлар учун F15 дан паст бўлмаслиги керак.

2.7<sup>7</sup>. Автоклавли ғовакли бетондан барпо этилган деворнинг ҳисобий намлиги ва намлик режими, девор конструкциясидаги жойлашишига ва эксплуатация шароитига боғлиқ ҳолда аниқланади.

Бир қатламли ташқи девор ва девор қопламаларида, бетоннинг ҳисобий намлиги эксплуатация А-шароитда ҚМҚ 2.01.01га асосан оғирлигининг 4 %, Б-шароитда оғирлигининг 5% этиб қабул қилинади ва рухсат этилади.”.

3. 6-боб қуйидаги мазмундаги параграф билан тўлдирилсин:

**“Силикатли газабетонли блоклардан иборат деворлар**

6.22. Намлик режими юқори бўлган хоналарнинг деворларида, ертўланинг ташқи деворларида, цоколь қаватларида, шунингдек бетоннинг намлиги юқори ёки агрессив таъсирлар мавжуд жойларда автоклавли ғовакли бетонларни қўллаш ва намдан ҳимоя қилишга ШНҚ 3.03.09 га асосан рухсат этилади.

6.23. Эксплуатациядаги деворлар намликнинг сорбцион зонасидан ШНҚ 3.0.3.09 талаблари бўйича ҳимояланиши керак.

6.24. Блоклардан ташкил топган девор элементларининг юк кўтариш қобилиятини ҳисоблаш ШНҚ 3.03.09 бўйича ва ёриқлар пайдо бўлишига деформацион ҳисоблар ҚМҚ 2.03.02 талабларига мувофиқ амалга оширилади.

6.25. Блоклар лойиҳа кўрсатмаси ва ГОСТ 31360 га мувофиқ қўлланилиши керак. Эксплуатациядан олдин пардозлаш қатламини текислаш талаб этилмайдиган деворларни барпо қилишда қўлланиладиган блокларнинг қирилиш, шикастланиш ва ёрилиш кўрсаткичлари ГОСТ 31360 га мувофиқ бўлиши керак.

6.26. Автоклавли ғовакли бетонлар орасидаги сувоқ қатламини юқа қилиб териш тавсия этилади. Сувоқ қатламининг ҳисобий қалинлиги горизонтал ва вертикал чокларда  $2\pm 1$  mm қалинликда қўлланилади. Конструкциядаги юпқа сувоқ қатламининг амалдаги қалинлиги 0.5 mm дан кичик, 3 mm дан кўп бўлмаслиги керак.

Девор чокларининг қалинлиги 3 mm дан кўп бўлганда девор мустаҳкамлигини аниқлашда сувоқ мустаҳкамлиги ҳисобга олиниши керак.

6.27. Юк кўтарувчи конструкцияларни қуришда қўлланиладиган автоклавли ғовакли газабетонли блоклар иссиқлик ҳимоя конструкциялари сифатида қўлланилганда мустаҳкамлик синфи бўйича В1,5 дан кам бўлмаган ҳолда тайёрланиши керак.

Сувоқ маркаси чокининг ҳисобий қалинлиги 12 mm бўлганда ҳамда унинг маркаси эса М50 дан кам бўлганда, шунингдек бетоннинг сиқилишга мустаҳкамлик синфи В2,5дан паст бўлмаслиги, шу билан бирга В3,5 да М100 дан кам бўлмаслиги тавсия қилинади.

Сувоқнинг сиқилишга мустаҳкамлиги юпқа чокли теримларда тавсифланмайди.”.

4. 7-боб қуйидаги мазмундаги 7.34<sup>1</sup>-банд билан тўлдирилсин:

“7.34<sup>1</sup>. Тарзларни фиброцементли панеллар билан қоплаш осиб қўйиш технологияси орқали амалга оширилади.

Цоколь тарновларини ўрнатишга бўлган талаблар қуйидагилардан иборат:  
пойдеворни намликдан ҳимоялашда, цоколь тарновларини отмоствадан 5-10 sm баландликда ўрнатиш;

клаймерларнинг пастги қаторини тарнов остида панел билан асосни фиксация қилиб ўрнатиш;

клаймерларни вертикал йўналишда маҳкамлаш;

чокланган вертикал планка панелларнинг тўғри жойлашувини таъминлаган ҳолда вертикал сатхга мос равишда қотириш.”.



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRINING**

**BUYRUG'I**

**QMQ 3.03.01-98 "Yuk ko'taruvchi va tusuvchi konstruksiyalar" qurilish normalari va qoidalariga qo'shimchalar kiritish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 9-dekabrda PF-32-son Farmoniga muvofiq buyuraman:

1. QMQ 3.03.01-98 "Yuk ko'taruvchi va tusuvchi konstruksiyalar" qurilish me'yorlari va qoidalariga ilovaga muvofiq qo'shimchalar kiritilsin.
2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Қурилиш вазири**

Тошкент ш.  
2022 йил 10 март,  
34 сон



**Zakirov B. I.**

Келишилди:

**Ўзбекистон Республикаси  
Санитария-эпидемиологик  
осойишталик ва жамоат  
саломатлиги хизмати  
бошлиғи**

Тошкент ш.  
2022 йил 25 февраль,



**Юсупалиев Б. К.**

**Фавқулодда вазиятлар  
вазирининг ўринбосари**

Тошкент ш.  
2022 йил 02 март,



**Кулдашев А. Н.**



TEXNIK JIHATDAN  
TARTIBGA SOLISH  
SOHASIDAGI NORMATIV  
HUJJATLARNING  
HUQUQIY EKSPERTIZASI  
NATIJALARI BO'YICHA  
X U L O S A

O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi

QMQ 3.03.01-98 - son

1. Hujjatning turi:

Shaharsozlik normalari hamda qoidalari

2. Hujjatning nomi

QMQ 3.03.01-98 "Yuk ko'taruvchi va tusuvchi  
konstruksiyalar"ga kiritilayotgan № 1-sonli qo'shimchalar

3. Hujjatni tasdiqlagan organ va u kiritilgan sana haqidagi  
ma'lumot

Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi qurilish vaziri  
tomonidan 2022-yil 10-martda 34-son bilsn tasdiqlangan.

4. Hujjat bo'yicha taklif va e'tirozlar

Mazkur hujjat texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi  
normativ hujjatlarga qo'yiladigan talablar asosida kiritilganligi  
sababli taklif va e'tirozlar mavjud emas.

5. Qonunchilik texnikasi qoidalariga rioya qilinganligi

Ushbu hujjat "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi  
Qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat  
huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va  
muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-  
tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 19-maydagi PF-5997-son qarori  
hamda Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ  
hujjatlarni tayyorlash, huquqiy ekspertizadan o'tkazish va  
hisobga olish qoidalari (ro'yxat raqami 3344, 2021-yil 28-  
dekabr) (keyingi o'rinda - Qoidalar) talablariga javob beradi va  
qonun hujjatlariga zid emas.

6. Mas'ul ijrochi

Hukumat bayyonomasi qarorlari va idoraviy normativ hujjatlarni  
huquqiy ekspertizadan o'tkazish boshqarmasi

## Hujjatni huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijasi bo'yicha

### XULOSA:

Mazkur SHNQ bilan QMQ 3.03.01-98 "Yuk ko'taruvchi va to'suvchi konstruksiyalar" shaharsozlik normalari va qoidalariga qo'shimchalar kiritilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 9-dekabrda PF-32-son Farmonining 10-bandida shaharsozlik normalari va qoidalariga ko'p qavatli uy-joylar qurilishida energiya tejankor materiallardan foydalanish bo'yicha tegishli qo'shimchalar kiritish nazarda tutilgan. Shundan kelib chiqib, mazkur SHNQga konstruksiyalarni ko'tarish bilan bog'liq qurilish ishlarini olib borishda avtoklavli silikatli gazabeton bloklardan foydalanishni nazarda tutuvchi talablar kiritilmoqda. Taqdim etilgan shaharsozlik normalari va qoidalarida huquqiy normalar mavjud emas. Ta'kidlash lozimki, mazkur texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatni huquqiy ekspertizadan o'tkazishda unda texnik ko'rinishdagi, shu jumladan hujjat mazmunining o'zgarishiga olib kelmaydigan xatoliklar mavjudligi aniqlandi. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2022-yil 4-apreldagi 20-02/3213-son xati hamda Qoidalarning 71-bandiga asosan hujjatda aniqlangan texnik ko'rinishdagi xatoliklar bartaraf etildi. Yuqoridagilarga ko'ra, QMQ 3.03.01-98 "Yuk ko'taruvchi va to'suvchi konstruksiyalar" shaharsozlik normalari va qoidalariga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi buyruqni hisobga olish mumkin deb xulosa qilaman.

**Rahbar**



**Davletov R.**

**K.**

2022 - yil 6 -  
aprel